Ibn Sino Olloh va Insonning bilgisi ustida fikr yuritar ekan, u bir ko'p Islom olimlarining ega bo'lmagan epistemologiya tushunchasini o'rtaga qo'ygan. Ibn Sinoga ko'ra anglashga sabab bo'lgan har bir narsa alohida, yolg'iz narsa bo'lib uning anglashilishi uchun biron bir aloqa kerakli. Boshqacha qilib aytganda Insonlarning yolg'iz narsalarni tushuna olishi, anglay bilishi uchun tuyg'u organlari bor. Yolg'iz narsalar ko'p va ular o'zgarishga egadirlar [Ibn Sino. 2004: b. 383]. Atayning ifoda qilgani kabi Ibn Sino tushunchasida Ollohning hamma narsani bilmoqda ekanligi undagi bilgida biron o'zgarishga olib kelmaydi. Buning sababi Olloh ham aql ham aql etilgan ham da aql etgan borliqdir [Atay. 1974: b. 51]. Ollohning bir ko'p yolg'iz narsalarni bilishi bir ko'p aql yurutishini zaruriy qilgay. Bu esa Olloh uchun tushunishi mumkin bo'lmagan narsa. Olloh hamma narsani universal (bir butun) o'laroq biladi, faqat yolg'iz yakka narsalarni bilmaydi deyolmaymiz. Chunki hech bir yakka va yolg'iz bo'lgan narsa undan yashirincha bo'lolmaydi [Ibn Sino. 2004: b. 383]. Ibn Sinoga ko'ra Olloh olamdagi har bir narsani azaliy ilmi bilan bir butun o'laroq bilguvchi zaruriy borliqdir. U Quyosh tutilishi namunasini misol qilib bu masalaga yorug'lik kiritgan. Chunki quyosh tutilishi zamon tushunchasiga bog'liq anglashilishi mumkin bo'lgan voqeadir. Anglash bilan ma'lum bo'lgan narsa yakka yolg'iz narsadir. Olloh esa quyosh tutilishi zamoni, joyi va qanday ekanligi o'zgaruvchi kabi o'zgarishlardan ta'sirlanmagan holatda bilguvchi zotdir. Ibn Sino bu xususda juda ham jiddiy bo'lib "yakka, yolg'iz narsalarni, universal, bir butun tomondan bilish" deya biron tushunchani inkor qilgan odam bilan fikr almashitirishni keraksiz deb bilgan [Ibn Sino. 2004: b .384].

Ibn Sinoga ko'ra butun olamning yaratguvchisi bir bo'lgan Olloh (Olloh). Olamdagi barcha mavjudotning uning bilan aloqasi bor. Olloh butun ilmlarning tamal sababidir. Lekin uning bilgisi avvaldan emas oxirda o'rganiladi [Ibn Sino, Donishnoma, s. 140]. Bir Insonning biron narsani bilishi unga bir boshqa bilgining qo`shimcha qilinishidir. Bu jihatdan olib qaraguvchi bo'lsak, Ollohning olim (bilguvchi) sifati bugun uchun kerakli. Chunki uning bilgisi Insonniki bilan bir emas. Insonda yuzaga kelgani kabi olamdagi har bir voqea uning bilgisida biron bir o'zgarishga sabab bo'lmaydi [Ibn Sino. 1960: b. 207]. Ollohdagi bilgi zamonning ustida bo'lgan bir bilgidir. Insondagi har bir bilgi zamon ichida yuzaga kelgani uchun unda o'zgarishga ega. Ollohning bilgisi Ibn Sinoga ko'ra astronomiya masalasida tilga keltirgani kabi, yulduzlarning harakatini qayerda, qaysi vaqtda qanday harakat qilishini hammasini bir lahzada biladi. Ollohning bilgisi universal bo'lgani uchun butun bularni zamon ichida emas zamondan munazzah ravishda biladi [Ibn Sino. 1960: b. 250].

Ibn Sinoning bu masaladagi xususiyati shunchalik kerakliki, u Plotinus va keyingi Yangi Platonchilarning "emanation/tashma" nazaryasidagi tushunchani ham o'z tanqidiga olmoqda. U olamning azaliyatini jismda va zamondagi azaliyat o'laroq izohlaydi. Chunki agar Olloh olamni biron bir aniq bir vaqtda yaratgan bo'lsa uning boshida bir yo'qlik yuzaga kelishi kerak bo'ladi. Bu esa zamondan avval bir yo'qlik yuzaga kelishini shart

qilishidir va bu esa mumkin emas. U holda zamon va jism ham azaliy bo'lib bular faqatgina zamon va jism jihatidan azaliydirlar. Zot jihatidan bo'lsa faqatgina Olloh azaldir [Çubukçu. 1984: b. 95].

Ibn Sino bu masalada olamdagi mukammal qonunning borlig'ini uning ya'ni Ollohning aql etishiga bog'lab, olamning uning aql etishi soyasida yaratilganligini tushunmoqda. Chunki Olloh yaratganda zaruriy bo'lgan borliq bo'lgani sababli uning aql etmasi bilan yaratmasi bir va ayni narsadir. G`azzoli va yana boshqa ilm ahli bu sababli Ibn Sinoni olam va Ollohga azaliyat yuklamoqda deb panteist deb tanqid qilishgan/ qilmoqdalar. Bu esa ularning Ibn Sinoning qayg'ularidan bexabar ekanliklarining misolidir.

Haqiqatni zamon ichida qidirish va zamon bilan tushunishga yo'l ochgan metafizik muammolardan biri Insonning ozod bo'lgan borliq ekanligi bilan bog'liq masala bo'lsa kerak. Zamon usti bir irodaga va bilgiga ega Olloh qarshisida Inson ozod bo'la oladimi? Bu muammo qadar/taqdir masalasi bo'lib Musulmonlar orasida juda ko'p munozaralarga yo'l ochgan. Maqolamizning ikkinchi qismida Ibn Sinoning Inson haqidagi fikrlariga to'xtalmoqchimiz. Chunki bu muammo faqatgina qadar masalasi emas asrimizda Inson hayotining jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarida o'zini ko'rsatgan shaxsiyat masalasining eng oldingi muammolaridan biri bo'lib sanaladi.

Ibn Sinoning Inson haqidagi g'oyalari

Inson bir tomondan aqlga ega borliq bir boshqa tomondan esa ruhga ega borliqdir. Inson ruhi tomonini oydinlikka olib chiqish bilan birga ozodligini va avtonomligini qo'lga kiritib organik extiyojlarining ustiga chiqish bilan birga hayvonlardan boshqacha bir darajaga ega boladi. Bu xususiyati Insonga ruhli va jonli borliq bo'lishini taminlaydi [Durgun. 2018: b. 104].

Ibn Sinoning tushunchasida Inson markazi bir yerga ega. Ibn Sino metafizik tushunchaning tamalida borliq fikrining yotganini ifoda qilish bilan birga bu borliq tushunchasining Inson zehnida oydin ravishda bor ekanligini bildirmoqda [Ibn Sino. 2004: b. 11]. Bu oydinlik Ibn Sino nazarida borliq g'oyasi (tushunchasi) asosi o'laroq Inson zihnida bor ekanligi masalasidir [Ibn Sino. 2004: Metafizik I, b. 27-28]. Bu tushuncha "zaruriy" va "narsa" konseptsiyalari uchun ham bir xil. Ibn Sinoning tushunchasida Insonni Inson qilgan uni shaxsiyatli borliq qilgan narsa, Insonning axloqi fel atvori hisoblanadi. Axloqi borliq bo'lgan Inson bu axloqi Inson xususiyatiga Olloh tushunchasiga ulashish bilan erishmoqda. Shuning uchun Ibn Sino Inson haqida o'z tushunchasini asarlarida bayon qilayotib birinchi navbatda Insonning nafs borliqi haqida tamallantirguvchi fikrlarini yozgan. Ibn Sino Antik Yunondan kelgan aql egasi Inson va Yahudi-Xristian madaniyatidan kelgan yaratilish haqida fikrga ega Inson tasavvuri haqidagi tushunchalarni yaxshilab o'rgangan. Ibn Sino Platon va Aristotelning noaniq tashlagan bir ko'p muammolarni ochib bergan va Inson haqida uning "nafs" xususiyati borasida yana ham tizimli bir shaklda o'zining fikrlarini bayon qilgan [Durusoy. 2012: b. 107].

Kalom va tasavvuf tushunchasida, falsafada bo'lgani kabi tizimli bir ravishda "nafs" tushunchasining bor ekanligini aytishimiz mumkin emas. Ibn Sino o'z asarlarida Mutazila va Esh'ari kalom ilimi olimlarining "nafs"ning moddi bo'lgan javhar o'laroq qo'lga olganliklarini bayon qilgan. [Kindi. 1983: b. 305]. Ibn Sino Al Farobi'ning "nafs" tushunchasining bularga fikran borliqini so'ngra esa mohiyati haqida o'z fikrlarini asoslantirgan. Bu asosga ko'ra "nafs" sur'at, quvvat, sur'at va kamol, foydalilik va mukammallik xususiyatlari bilan qaralishi mumkin. Ibn Sino kalomchilardan farqli o'laroq nafsni, ruhni moddiy sur'at emas bir harakatga keltiruvchi sur'at ekanligini, bu tomondan olib qaralganda nafs,ruh aqli quvvat, hayvon va bitiklarning fe'li bor bo'lishini so'zlagan

"sur'at" ekanligini bildirgan. U, "shaxsiyat" haqidagi tushunchasini tahlil qilib nafsning,ruhning alohida va ma'naviy javhar ekanligini bildirgan. Inson bu jihatdan olib qaraganda faqatgina tuyg'uga ega bo'lgan moddiy bir borliq emas ayni zamonda "notiq nafs" ga ega bo'lgan va bu jihati bilan o'z borliqini bilan birga ongli borliq ekanligini bildirgan. Ibn Sino ash-Shifo, Kitob un-Najot , "Al-Ishorat Vattanbihot" nomli asarlarida "nafs" haqida tushunchalarini tizimli ravishda tabiat va metafizik bilimlari orasidagi aloqalarini tahlil qilgan. Nafs,Ruh haqida yozgan "Mebhas 'ani'l-kuva'n-nefsaniyye" asarida Ibn Sino "shaxsiyat" tushunchasining metafizika/ilohiyot haqida ma'lumot bergan yo'llarning boshida kelganligini aytib, avliyo va ilm arboblarning "o'z nafsini bilgan odam, Robbini bilgay" tushunchasida hamfikr bo'lganliklarini bildirgan. Ibn Sino bu borada Qur'oni Karimning Xashr 19. surasining "Ular Olloh'ni unuttu, Olloh ham ularga o'zlarini unutturdi" oyatidan misol keltirib, Insonning ruhi,ma'naviyati xususiyatining ahamiyatini tahlil qilgan [Ibn Sina. 1952: b. 147-148].

Durusoy'ning ifoda qilgani kabi Ibn Sino Inson nafsining ham fizik hamda metafizika olami to'grisida ma'lumot ola bilish quvvatiga ega ekanligini bildirgan. Fizik olami haqidagi ma'lumotlar nafsing aqil quvvatiga yo'nalar ekan, metafizika olami haqidagi ma'lumotlar to'g'ri nafsning, ruhning o'ziga yo'nalmoqda ekanligini bildirgan [Durusoy. 2012: b. 72].

Xususan "an-Najot" nomli asarida Ibn Sino nafsning qadim Yunon falsafasida zikr etilgan xususiyatlari haqida o'z taxlilini bayon qilgan. U, Aristotelning nafs haqidagi kitobi bo'lgan "De Anima" nomli asariga sharh yozish bilan birga bu asarda zikr etilgan o'simlik, hayvonat va Insonni nafsning xususiyatlari haqida o'z fikrlarini yozib qoldirgan. Ibn Sino Inson nafsini ikki omili bor ekanligi ustida to'xtalib, uning anglaguvchi va bilguchi kuchini izlagan. So'ngra Inson aqlining nazari va amali kuchini izlab ularning funksiyalarini yozib qoldirgan. Bu tomondan olib qaragnimizda Ibn Sino Aristotelning bu borada to'xtalib o'tgan faqat keng bir holatda tilga olmagan funksiyalari haqida ochiq misollar qoldirgan. Ibn Sino Inson aqlining nafaqat psixologiyalik tomoniga ayni payta uning taxayyul, vaxim va anglaguvchi, idrok qilguvchi funksiyalari ustida juda kop ishlagan. Chunki Insoni aqli va axloqi Ibn Sino uchun borliq ekanligini yuzaga keltirguvchi yagona xislatdir. Xususan "ahvalu'n-Nafs" nomli kitobida Ibn Sino Insonning psixologik (ruhiy) holatlarining tamal printsiplarini ishlab chiqqan. Bu printsiplargaqaraganimizdaInsonning ruhi holatining eng tuban pog'onasidan eng yuqori bo'lgan pog'onasiga qarata qilgan harakati, belgili bir martabaga ulashgan nafsnining bir narsani idrok qilguvchi quvvatiga ulasha bilishi va idrok qilingan narsa va voqea ustida ular bilan bo'lgan aloqasidagi yangi harakat faoliyatlari yaratabilish quvvati Insonning ega bo'lgan nafs quvvatlarini bildirmoqda. Ibn Sino bu asarida Inson nafsining Inson badani bilan birga o'rtaga chiqishini isbotlash bilan birga bu nafsing qay martabalarda idrok quvvatiga erishmoqda ekanligini batafsil asoslab bermoqda. Bulardan birinchisi jonli organizma (o'simlik), Ikkinchisi hayvoni va uchunchisi nafsi notiqa quvvatlari bo'lib Insonni Inson qilgan xususiyat nafsi no'tiq quvvatiga ega bo'lishi bo'lib xisoblanadi. Ibn Sinoga ko'ra notiq nafs, boshqacha qilib aytganda tushunganini so'z kalimalarga axtaraichi nafs bo'lib, Inson bu idroki soyasida butun olam va Olloh bilan bo'lgan munosabatlarini axloqi munosabatga qarata bilmoqdadir. Ibn Sinoning bu asarida qo'lga olgan idrok etguvchi nafs, nafsing aqliy quvvati, ya'ni aqldir. Ibn Sino Inson aqlining idrok quvvatining har bir pog'onasini ishlash bilan birga aqlning alohida va universal narsalaring idrok qilish xususiyatlariga ham katta e'tibor bergan. Chunki Insonni baxtli qilgan holat Insonni universal bo'lgan narslarning ma'nosiga erisha bilishi holatidir [Ibn Sina. 2019: b. 52,53, 104,112, 139, 163,168]. Ibn Sino Kantning asrlar so'ngra sof va malakaviy aql haqida bayon qilgan aqlning bu ikki hislati yoki xususiyati

to'g'risida asrlar avval batafsil izohga qovushtirgan. Ibn Sino bir narsa haqida Inson aqlida yuzaga kelguvchi omillarni har bir pog'onasini izohlab bergan. Xatto Inson aqlining moddiy bo'lgan narsalardan moddiy bo'lmagan, ma'naviy bo'lgan borliq tushunchalarning qandayin idrok-ma'nolarga olib chiqqani, tahayyul quvvatlari haqida ko'pdan ko'p misollar keltirgan [Ibn Sina. 2013: b. 144-157].

Inson shunaqa bir mavjudotki, o'z nafsimizning badan bilan bo'lgan eng tuban aloqasida ham xislarimiz bilan oldimizda turgan narsaning rangi, tami, hidi, issiqligi, sovuqligi, og'irligi, yengilligi, qattiqligi, yumshoqligi kabi turli tomonlarini idrok qilmoqdamiz. Keyin esa bu xususiyatlarga ega bo'lgan narsaning, hissiyotimizning idrok sohasidan tashqariga chiqqandan keyin zihnimizda bu narslarning ma'lum bir sifati va miqdori, joyi va holati ichida hayol etmoqdamiz. So'ngra esa jismlarga oid bo'lgan va tashqaridagi jism bilan ma'lum bir aloqasi bo'lgan bu hayoli suratlardan ajratib universal tushuncha hosil qilmoqdamiz. Bu tushunchalarni (g'oyalar) esa aql o'z funksiyasi bilan birlashtirib jumlalar tashkil qilmoqda. Aql butun bu funksiyalari bilan qolmay tashkil qilgan bu jumlalarni tashqi haqiqatlarga uyg'un bo'lib bo'lmasligi tomonidan, to'g'ri yoki noto'g'ri deb baholanmoqda.

Ayni shaklda idrok va iroda qilingan narsalarni idrok va iroda quvvatlarining tabiyatlariga uyg'un bo'lgan yoki bo'lmaganligi haqida baholab, ularning shirin-achchiq, yaxshi-yomon, go'zal-xunik, kabi ekanliklari haqida fikrlar beramiz. Idrok qilish haqida fikrlar bergan bu narslarning va fikrlaring o'zlari nima? ekan degan savol bizlarni butun bularni o'z ichiga olgan g'oya bilan uchrashtirmoqda. Bu aqlimizning eng universal tushunchasi bo'gan "borliq" g'oyasidir. Ibn Sino, Inson uchun metafizikani mumkin qilgan "aql quvvatini" tahlil qilib unda joy olgan narsaning borliq, narsa va zaruriy g'oyalar ekanligini aniqlagan.

Ibn Sino fikriga ko'ra bu g'oyalar shundayin ochiq g'oyalar bo'lib, boshqa g'oyalarni bilish uchun ulardan yana ham ochiq g'oyalarga ehtiyoj bor bo'lsa bularni bilish uchun boshqa g'oyalarga ehtiyoj yo'q. Faqat yolg'izgina bularni aqlning anglashi uchun aqlni uyg'otuvchi alomatlar keraklidir. Ibn Sino bu alomatlar va ishoratlarga "sebilu't-tanbih" nomini bergan. Bular bilan aql bu g'oyalarni boshqa hech qanday bilishga ehtiyoji bo'lmasdan angalayolishidir. Faylasufning fikricha aqlning borliq haqidagi baholashlarining asosi borliq va mohiyat tahliliga tayanmoqdadir [Durusoy. 2012: b. 85, 86, 87, 88].

Bu jihatdan olib qaralganda "an-Najot" bu Insonning hamda butun Insoniyatning najot topishi o'z aqlini mustaqil ravishda ishlata bilishiga bo'gliq ekanligi to'grisida bizlarga keng tushuncha baxsh etmoqda.

Ibn Sinoning boshqa bir asari "Hayy Ibn Yaqzon" ham Inson va uning hayoti haqida yozilgan eng muhim asarlardandir. Ibn Sino bu asarida fenomenal dunyo bilan haqiqat (numenal/metafizik) dunyo o'rtasida o'z hayotini ma'nolantirish uchun qiyinchilik yashayotgan Insonga bu olamdagi borligini (Ekzistensialist ma'noda) ahamiyatiga erishishi borasida tafakkur imkoniyati bermoqda. Ibn Sino Insonning o'z ichki dunyosiga safar qilishi bilan o'zini bu olamda borliqning ahamiyatiga erishishini bu asarida tahlil qilar ekan, Inson aqlining ichki dunyosida keng ma'no va haqiqat tushunchalariga borish bilan birga o'z shaxsiyatini tiklay bilishi to'g'risida fikrlarini bayon etgan. Xatto shuni bemalol aytish mumkinki, Ibn Sino asrlar avval Ekzistensialist faylasuflarining ilgari surgan; Insonning bu dunyodagi borliqining ahamiyatiga erishishidagi asosiy muammolar haqida tushuncha bayon etgan. Bu tushunchaga ko'ra Inson bu dunyoda o'z borligining ahamiyatiga faqatgina abadiylikni anglay bilishi bilan erishishi mumkin. Boshqacha aytganda Olloh tushunchasiga Inson o'z aqli bilan erishmadan o'zining bu dunyoda mustaqil bir borliq ekanligini bilolmaydi. Asarning

oxirgi so'zlari juda ham ma'noli natija bilan yakunlanmoqda; "agar xohlasang orqamdan kel....seni unga olib boray!" [Ibn Sina. 2017: b. 5-53]

Ibn Sinoga ko'ra "shaxsiyat" tushunchasining mantiq va metafizika borasidan qiymati muhim bo'lib bu yerda aqlning vazifasi axloqni yetuklikga yetkazishda fazilatli va hikmatli bo'lish yo'llarini bilishdir [Ibn Sino. 2008: b. 22].

Natijada Ibn Sinoning Olloh va Inson haqidagi tushunchalarini bir butun ravishda qo'lga olganimizda shu mulohazalarni misol keltirishimiz mumkin. Ibn Sino bu borada nafaqat antik Yunon tushunchasini ayni paytda o'z davridagi kalomi tushunchaning Olloh tog'risida ilgari surulgan moddiy javhar tushunchasiga qarshi o'zining ko'z qarashlarini Islom dinining aqidasiga xalal bermagan holda zaruriy borliq fikrini taxlil qilib chiqqan. Bu tushunchaga ko'ra Olloh sof aql bo'lgan butun moddiyot munazzah bir Olloh'dir. Ibn Sinoning Inson haqidagi alegorik tushunchasini yaxshilab qaraganimizda, u Insonni aqli va ma'naviy bo'lishida ilohiy xislatlarga boy bo'lgan borliq ekanligini bildirgan. Shuning uchun ham Ibn Sino Insonni shaxsiyatga bog'lanishi uchun o'z aqli bilan Olloh tushunchasiga erishgandagina Inson bo'lishi mumkin ekanligini tilga olgan. Chunki Insonning bu olamdagi hayotining ma'nosi faqatgina ushbu yo'ldan o'tmoqda. Inson bu dunyoda erkin borliq ekanligini Olloh tushunchasining o'z shahsiyatiga olib chiqqandagina erishaoladi. Yana Ibn Sino Inson nafsining har turli yomonlikdan va axloqsiz harakatlardan saqlanishini taminlaydigon eng muhim ishning (fe'l, harakatning) ibodat ekanligini bildirmoqdadir [Ibn Sino. 1960: b. 443]. Chunki ibodat Insonning nafsini va ruhini har turli kirdikorliklardan saqlaydi va ibodatlari bilan birga bilimini saqlay olgan shaxs o'z oila, ijtimoiy jamiyat va o'zi uchun yaxshi ishlarni ishga oshiraoladi. Ibodatlarning bir boshqa yaxshi tomoni esa Insonning oxiratining obod bo'lishini ta‘minlovchi tomoni ham bor.

Bu tushunchaning nuqtai nazaridan olib qaraganimizda Ibn Sinoga ko'ra metafizikaga Insoning ulasha olishini Insonning o'z borliq xususiyatida mavjud ekanligini bildirmoqda. Bu esa Insonga berilgan imkon bo'lib bu imkoni potensial quvvat holatidan faol holatga olib chiqish Insonning irodasi va jahdiga erkin bir ravishda berilganligini ifoda qilmoqda. Ya'ni Insonda bor bo'lgan bilfiil aqlning fiili holatga kelishi bilangina metafizik bilgiga erishaolishini qalamga olgan. Shuning uchun Ibn Sinoga ko'ra metafizika bilan shug'ullanish mumkin va bu imkoniyat Insonning o'z borliq strukturasida mavjud. Bu Insonga berilgan imkoniyatni Inson quvvat holatidan harakat holatiga olib chiqishi uning irodasining ixtiyoriga qoldirilgan. Boshqacha qilib aytganda Insonda mavjud bo'lgan kuchli aqlning kuchsiz aql holiga kelitirishi bilan Inson metafizika bilishga ulasha olishi mumkin. Bu ma'noda Inson nafsi "bilfiil" aql darajasida jismdan mustaqil ravishda o'zini tushuna bilganida, u nafs o'zidan boshqa borliqlarni ham tushuna boshlaydi va bu holatda Inson o'zini metafizikaning oldida topadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda nafs, ruh va aql g'oyalari Ibn Sino falsafasining markazi mavzularidan biri hisoblanadi. Ushbu g'oyalar Ibn Sinodan oldingi metafikada nafs va aql Ollohning oldida metafizik printsip o'laroq qabul etilgan. Ibn Sino esa nafs nazariyasini tajribalaridan kelib chiqib asoslamoqda. Yuqorida ta'kidlaganidek, Ibn Sino nafsning borliqini, uning ichki va tashqariga qaratilgan belgisidan isbotlab bu yerdan metafizikaga o'tadi. Chunki Ibn Sino, nafsning bor bo'lishini izoh qilish bilan birga uning badan bilan birga borliqni mumkin bo'lganligi kabi metafizika nazariyasidan muhim bo'lgan asosiy g'oyalarni qo'lga kirigan. Borliq-mohiyat, vujub-imkon haqidagi izohlari

ham Ibn Sinoning ulashgan nuqtai nazarlaridan biri bo'lib sanalishi mumkin. Ibn Sino Insonning bu olamdagi o'rnini ham Inson nafsining va ruhining borligidan Ollohning borligiga yo'nalish bilan birga, butun olamning Olloh tomonidan yaratilishini izoh qilgan.

Ibn Sino borliq to'g'risidagi g'oyasini, bir narsa va zaruriy g'oyasi bilan birgalikta Inson zihnidan o'laroq bor ekanligi tushunchasidan xarakat qilgan holda ontologiyasida bor bo'lish bilan zaruriy bo'lishni deyarli sinonim o'laroq qo'lga olgan. Shu holatda bor bo'lish zaruriy bo'lishdir. O'zi o'ziga bo'gliq zaruriy Borliq va zaruriyligini boshqasidan olmagani uchun sababli emas. Aksincha ko'p sababli borliqlarning sababi bo'lgan Ilk Borliqdir.

Bu nuqtai nazardan olib qaraganimizda Ibn Sinoning mantiq, bilish, metafizika va axloq tushunchalarining nafs, boshqacha qilib aytaganda Inson tushunchasi bilan qattiq bo'gliq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ibn Sinoning Insoni nafs haqidagi tushunchalari Islomiy aqidaga xos ekanligini butun asarlarida Islom chizgisida ishlashga harakat qilganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun aql va vahim quvvati bilan bog'liq izoxatlarida, nafsning borliqiga, amali va nazari yaxshilik borasida va yana yomonlik va axloqi yaxshilik kabi muammolarning yechilishiga qaraganimizda Ibn Sinoning Islom aqidasida mavjud bo'lgan mo'min, orif kishining xusisiyatlariga xos ekanligini ayta olamiz. Ibn Sinoning bu boradagi qarashlari o'zidan keyingi Islom va Xristian olamida asrlar mobaynida o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Chunki Ibn Sino Platon va Aristotelning noaniq tashlagan nuqtalarini ochib bergan va ularni yana ham tizimli holatga solgan. Bularning oldida Ibn Sinoning o'rtaga qo'ygan Olloh va Inson nazariyasi nafaqat o'zining yashab o'tgan zamonidagi Inson va Olloh tasavvuruni ochib bermoqda, ayni zamonda zamonaviy Insonning erkin bir holatda ishonch va axloq tushunchasini ham bizlarga shunday bo'lishi kerakligi to'g'risida keng tushunchalar bilan izoh qilmoqda. Adolat, saxovat, haqiqat borasida ham o'z fikrlarini faqatgina bu xislatlarga ega shaxs bayon qila oladi. O'z fikrlarini erkin bayon qila olgan shaxsgina o'z irodasini turli tushunchalar oldida o'rtaga qo'ya oladi. Aqlni Ibn Sino aytgani kabi universal bo'lgan tushuncha yoki borliqni anglayabilish uchun ishlataolmagan odamning adolat, huquq, to'g'rilik, durustlik kabi masalalarda ham yetarsiz qolmoqchiligini bildirmoqda. Ibn Sinoning Olloh va Inson haqidagi tushunchasini yaxshilab izoh qilganimizda bu tushunchalarning falsafasida markaziy joyga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shunday holda Ibn Sino falsafasini to'g'ri tushunish uchun uning Inson, nafs va Olloh tushunchalarini anglamoq kerak.

Bibliografiya

1. Akgün, Tuncay (2013). Gazzoli va Ibn Rusht'ga K'ora Yaratma, Ankara: Akchag' Nashriyoti.
2. Alper, Ömer, M (2008). Ibn Sîno, İsam Nashriyot uyi. İstanbul,
3. Ankabut: 20, http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1847.480 (Qur'oni karim. Abdulaziz Mansur tarjima va sharhi)
4. Atay, H. (1974). Farobiy va Ibn Sinoga Ko'ra Yaratma, Ankara Universiteti İlohiyat Fakulteti Nashriyoti, Dotsentlik Dissertatsiyasi, Ankara.
5. Bozkurt, Ö. (2014). "Ibn Sîno'ning'nin Olloh Tushunchasining Tayangan Asoslari", Diyonat İlmiy Jurnali • 50/1, ss. 67-86
6. Boethius, (2011). Falsafaning Taskini. Lotin tilidan tarjima qilingan. Chigdem Durushken, Istanbul: Kabalchi nashriyoti.

7. Cross, Richard (2012). "Bethius'da shakl va universallik", Buyuk Britaniya Falsafa Tarixi jurnali, 20-nashr, 3-son: 439–458
8. Chubuqchi, A. (1984). Ibn Sino va Falsafa, Xalqaro Ibn Sino Konferensiyasi, Ankara.
9. Durusoy, A. (2012). Ibn Sino Falsafasida Inson va Olamdaki O'rni (Nafs, Aqil ve Ruh), M.Ü. İlohiyot Fakulteti Vaqfi Nashriyoti, İstanbul.
10. Demirli, E. (2008). İslom Metafizikasida Olloh va Inson Îbnü'l-Arabi va Vahdat-i Vucûd Geleneği, Kabalci Yayinevi, İstanbul
11. Kindi, (1983). "Fi Sirri'l-kader", nşr: Hasen 'Asi, *et-Te/sirü'I-Kurônive'l-lügatü's-sufiyye fi /else/eti* Ibn Sinô
12. Ibn Sino, (2009). Shifo Kitobi, Tip Konunlari, Falsafa Masalalari, Muzika, (nashriyotga tayorlagan Hüseyin Gazi Topdemir) Say Nashriyoti, İstanbul.
13. Ibn Sîno, (2004). Shifo Kitobi, Metafizika I, (tarjuma. Ekrem Demirli-Ömer Türker), Litera Nashriyoti, İstanbul.
14. Ibn Sino, (1960). el-İşôrdt *ve't-tenbihôt, (et-Tenbihôt* ve'I-İşôrôt o'laroq nashr qilindi) nşr: Mahmud Şihabi, Tehran (1339).
15. Ibn Sino. (1980). er-Risôletü'l-'Arşiyye, nşr: İbrahim Hilal, Kahire.
16. Ibn Sîno, (1980). 'Uyûnü'l-hikme, Dâru'l Kalem Nashriyoti, Beyrut.
17. Ibn Sino, (2012). En-Necat, Falsafaning Tamal Konunlari, (tarjuma. Kübra Şenel), Kabalci Nashriyoti, İstanbul.
18. Ibn Sino. (2013). Dnishnoma-i Alai Alai Hikmet, Tarjuma, Murat Demirkol, Türkiya Yozma Asarlar Uyushmasi Boshkanliği Nashriyoti, I. Bosqi, İstanbul
19. Ibn Sino (2017). Ibn Sîno Hayy bin Yakzân – Keşifler, (tarjuma Şerafeddin Yaltkaya) Büyüyen Ay Nashriyoti, İstanbul.
20. Ibn Sino (1952). "Mebhas 'ani'l-kuva'n-nefsaniyye", nşr: Ahmed Fuad el-Ehvani, Ahvdlü'n-nefs, s. 147-178, Kahire.
21. Ibn Sino (2019). Ahvalu'n-Nefs, Klasik Psixologiyaning Tamal İlkalari va Problemalari, Tarjuma, İsmail Hanoğlu, Elis Nashriyoti, Ankara
22. Ibn Rüşd, (2018). Xatolikning Xatolikka Mos Kelmasligi, (tarjuma. Muharrem Hilmi Özer), Bordo Siyah Nashriyoti, İstanbul.
23. Kutluer, İ. (2002). Ibn Sino Ontologiysida Zaruriy Borliq, İz Nashriyoti, İstanbul.
24. Fussilat 51/53, http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1847.480 (Qur'oni karim. Abdulaziz Mansur tarjima va sharhi).
25. M.Xayrullayev: (2012). https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/abu-ali-Ibn-sino-980-1037/
26. Platon. (2001). *Timaios*, tarjuma. Erol Güney va boshqalar, İstanbul: Sosyal Nashriyoti.
27. Poyman, Lui P., Maykl Rea (2008). Din falsafasi - Antologiya, beshinchi nashr, AQSh: Tomson Vadvort press.
28. Serpil Durğun. (2018). "Falsafi Antropologiyalik Bir Nazarla Falsafa Bilgisining Ahammiyati". Anemon Mus Alparslan Üniversiteti Sosyal Bilimlar Jurnali, 6 (STEMES'18) 103-107

Transliteration

1. Akgün, Tuncay (2013). Creation According to Ghazali and Ibn Rushd, Ankara: Akçağ Publications.
2. Alper, O. M (2008). Avicenna, İsam Publishing House. İstanbul,
3. Ankabut: 20, http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1847.480 (The Qoran. Translating and Editing of Abdulaziz Mansur).
4. Atay, H. (1974). Creation According to Farobi and Avicenna, University of Ankara Publication of Faculty of Theology, Associate Professor Thesis, Ankara.
5. Bozkurt, Ö. (2014). "Avicenna's Views of God and İts Foundations", Journal of Diyanet Religious Journal • 50/1, pp. 67-86
6. Boethius, (2011). Consolation of philosophy. Translated from Latin. Çiğdem Dürüşken, İstanbul: Kabalci Publishing House.
7. Cross, Richard (2012) "Form and Universal in Boethius", British Journal for the History of Philosophy, Vol.20, Issue 3: 439–458
8. Cubukci, A. (1984). Avicenna and Philosophy, İnternational Conferance of Avicenna's, Ankara.
9. Durusoy, A. (2012). Avicenna's Philosophy and Its Place in the World (Self, Mind and Spirit), Publishing of Foundation of University of Marmaras Faculty of Theologyi, İstanbul.
10. Demirli, E. (2008). God and Man in Islamic Metaphysics Tradition of Unity of Body and Ibni Arabi, Kabalci Publishing, İstanbul
11. Kindi, (1983). "The Secret of Fathe": Hasen 'Asi, Commentary of Qor'an Sofian Dictionary in Philosophy Avicenna
12. Avicenna, (2009). Book of Healing, Medical Low, Music, Philosophy Problems [Preperad for publisng by Hüseyin Gazi Topdemir] Say publishing, İstanbul.
13. Avicenna, (2004). Book of Healing, Metaphysics I, (translated by Ekrem Demirli-Ömer Türker), Litera Publishing, İstanbul.
14. Avicenna, (1960). Signs and Testimonials, *(published as et-Tenbihôt* ve'I-İşôrôt) nşr: Mahmud Şihabi, Tehran (1339).
15. Avicenna. (1980). Treatise of Universe, pbl: İbrahim Hilal, Kahire.
16. Avicenna, (1980). 'Revealing of Visdom, Dâru'l Kalem Publishing, Beyrut.
17. Avicenna, (2012). Salvation, Basic Principles of the Philosophy (translated by Kübra Şenel), Kabalci Publishing, İstanbul.
18. Avicenna (2013). Danisname-i Alai Alai Book of Wisdom, (trans. Murat Demirkol), Turkey Authoring Works Agency Publications, First Edition, Istanbul
19. Avicenna (2017). Avicenna, Hayy Son of Yekzan– Discovery, (translated by Şerafeddin Yaltkaya) Büyüyen Ay Publishing, İstanbul.
20. Avicenna (1952). "Withdrawal of Ego", pbl: Ahmed Fuad el-Ehvani, s. 147-178, Kahire.
21. Avicenna (2019). Ahvalu'n-Nefs, Basic Principles and Problems of Classical Psychology, Translation, İsmail Hanoğlu, Elis Publishing, Ankara.
22. Ibn Rüşd, (2018). Inconsistency of inconsistency, (translated by Muharrem Hilmi Özer), Bordo Siyah Publishing, İstanbul.

23. Kutluer, İ. (2002). Necessity Being in the Ontology of Avicenna, İz Publishing, İstanbul.
24. Fussilat 51/53, http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1847.480 (Qor'an, translated by Abdulaziz Mansur)
25. M. Xayrullayev: (2012). https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/abu-ali-Ibn-sino-980-1037/
26. Plato. (2001). Timaios, Trans. Erol Güney and others, Istanbul: Social Publications.
27. Pojman, Louis P., and Michael Rea (2008). Philosophy of Religion - An Anthologhy,
fifth edition, U.S.A.: Thomson Wadsworth Press.
28. Serpil Durğun. (2018). The Importance of Philosophical Knowledge with a Philosophical Anthropological View" Anemon The Journal Social Science of Mus Alparslan University, 6(STEMES'18) 103-107

Библиография

1. Акгун, Тунжай (2013). Создание согласно Газали и Ибн Рушда, Анкара: Издательство Акчай.
2. Альпер О.М. (2008). Авиценна, Издательство Исам. Стамбул,
3. Анкабут: 20, http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1847.480 (Коран. Перевод и редактирование Абдулазиза Мансура).
4. Атай, Х. (1974). Создания согласно Фараби и Авиценна, Университет Анакара Издания Телогического Факультета, Диссертация Доцента, Ankara
5. Бозкурт, ... (2014). "Взгляды Авиценны на Бога и его основания", журнал "Религиозный журнал Диянет" о 50/1, стр. 67-86.
6. Боэций, (2011). Утешение философии. Перевод с латыни. Чигдем Дурушкен, Стамбул: издательство Кабалжы.
7. Кросс, Ричард (2012). "Форма и универсальность в Боэции", Британский журнал по истории философии, том 20, выпуск 3: 439-458
8. Чубукчу А. (1984). Авиценна и философия, Международная конференция Авиценны, Анкара.
9. Дурусой А. (2012). Философия Авиценны и ее место в мире "Я", "Разум" и "Дух", Издательство Фонда богословского университета, факультет теологии, Стамбул.
10. Демирли, Э. (2008). Бог и человек в исламской метафизической традиции единства тела и Ибни Араби, издательство Кабалжы, Стамбул
11. Кинди (1983). "Тайна отца": Хасен Аси, Комментарий к Корану Софианский словарь по философии Авиценна
12. Авиценна, (2009). Книга Исцеления, Медицинский Закон, Музыка, Проблемы Философии (Подготовлено для публикации Хусейном Гази Топдемиром), издательство Сай, Стамбул.
13. Авиценна, (2004). Книга Исцеления, Метафизика I (перевод Экрема Демирли-Омера Тюркера), Издательство Литера, Стамбул.
14. Авиценна, (1960). Знаки и отзывы, (опубликованные как et-Tenbihôt ve'I-İşôrôt): Махмуд Шихаби, Тегеран (1339).
15. Авиценна. (1980). Трактат о Вселенной, изд: Ибрагим Хилал, Каир.

16. Авиценна, (1980). 'Выявление Висдома, Издательство Дарул Калем, Бейрут.
17. Авиценна, (2012). Спасение, Основные принципы философии (перевод Кубра Шенел), издательство Кабалжы, Стамбул.
18. Авиценна (2013). Данишнаме-я Алая Книга Мудрости (пер. Мурат Demirkol), Турция Публикации Управления рукописей, первое издание, Стамбул.
19. Авиценна (2017). Авиценна, Хайон, сын Икзана - открытие, (перевод Шерафедина Ялткой) , издательство Буюйен Ай, Стамбул.
20. Авиценна (1952). "Снятие Эго", пбл: Ахмед Фуад эль-Эхвани, с. 147-178, Каир.
21. Авиценна (2019), Ахвалан-Нефс, Основные принципы и проблемы классической психологии, Перевод, Исмаил Ханоглу, издательство Элис, Анкара.
22. Ибн Рюшд (2018). Несоответствие несоответствия [перевод Мухаррема Хилми Озера], издательство Бордо Сийах, Стамбул.
23. Кутлуер, И. (2002). Необходимость быть в онтологии Авиценны, , издательство Из, Стамбул.
24. Фуссилат 51/53, http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1847.480 (Коран, перевод Абдулазиза Мансура)
25. М. Хайруллаев: (2012). https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/abu-ali-Ibn-sino-980-1037/
26. Платон. (2001). Тимаос, перевод. Эрол Гуней и др., Стамбул: Социальные публикации.
27. Пожман, Луис П. и Майкл Реа (2008). Философия религии - Антологоги, пятое издание, США: Томсон Вадвортс Пресс.
28. Серпиль Дургюн. (2018). Важность философского знания с философским антропологическим взглядом" Журнал Анемон Социальных Знании, Университета Муш Альпарслана, 6 [STEMES'18] 103-107.

Касим Муминоглу (Турция, Муш)

Мысль Абу Али Ибн Сина о Боге и человеке

Аннотация: В этой статье рассматривается философские мысли Ибн Сина о Боге и человеке. Ибн Сина в своем учение опирается на категории необходимость, возможность, реальность, разум, раскрывает причины существования всех вещей - их происхождение, порядок, отношения и трансформации. Ибн Сино описывает концепцию Бога и людей в своих произведениях Шифо, Ан-Нефс, Э-Ис'от-у-т-тенбихот, Рисале-фи-Келам, Алан-Нефси- натыка, Китабун Эн Нежат, Хай бин Якзон. Он проводил научные исследования в Рисалатул аль-Аршийя, Китабу-Шифа, Метафизике II, Ахвал ун Нефс и многих других.

Ключевые слова: Ибн Сина, человек, принудительное существование, возможная сущность, душа, разум

Ключевые слова (2): обязательные принципы, пантеистический взгляд, природа и присутствие

View publication stats